

**O‘ZBEKISTONDA DINIY TURIZMNI TASHKIL ETISH VA
RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ РЕЛИГИОЗНОГО
ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ
SPECIFIC FEATURES OF ORGANIZING AND DEVELOPING
RELIGIOUS TOURISM IN UZBEKISTAN**

Ashurov Jumanazar Saidkulovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Texnologiya va geografiya kafedrası o‘qituvchisi

Umarov Shohro‘z Mamayoqubaliyevich

Xoliyorov Hasanbek O‘rol o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya. Mazkur maqolada diniy turizmning mohiyati, uning jahon miqyosidagi rivojlanish xususiyatlari hamda hududiy tashkil etish masalalari yoritilgan. Diniy turizmning asosiy yo‘nalishlari, ziyorat turizmining global miqyosdagi o‘rni va makromintaqalar bo‘yicha taqsimlanishi tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonning boy diniy turistik salohiyati, ziyoratgoh maskanlarning ahamiyati hamda ularni rivojlantirish istiqbollari asoslab berilgan. Maqolada diniy turizmni rivojlantirish uchun zarur infratuzilma, xaritalashtirish va marketing strategiyalarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность религиозного туризма, особенности его развития в мировом масштабе, а также вопросы территориальной организации. Проанализированы основные направления паломнического туризма, его место в глобальной системе туризма и распределение по макрорегионам. Особое внимание уделено богатому потенциалу религиозного туризма Узбекистана, значению святых мест и перспективам их развития. Предложены рекомендации по совершенствованию инфраструктуры, картографирования и маркетинговых стратегий.

Abstract. This article explores the essence of religious tourism, its global development patterns, and issues of territorial organization. It analyzes the main directions of pilgrimage tourism, its role in the global tourism system, and its distribution across macro-regions. Special attention is given to Uzbekistan’s rich religious tourism potential, the significance of sacred sites, and their development prospects. The paper also proposes recommendations for improving infrastructure, mapping, and marketing strategies in the field of religious tourism.

Kalit soʻzlar: diniy turizm, ziyorat, turistik resurslar, makromintaqa, ziyoratgoh, infratuzilma, turistik infratuzilma, madaniy meros, logistika

Ключевые слова: религиозный туризм, паломничество, туристические ресурсы, макрорегион, святые места, инфраструктура, Узбекистан, развитие туризма

Keywords: religious tourism, pilgrimage, tourism resources, macro-region, sacred sites, infrastructure, Uzbekistan, tourism development

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Turizmning turli yoʻnalishlari mavjud boʻlib, ular orasida diniy turizm alohida oʻrin egallaydi. Diniy turizm insoniyat tarixining eng qadimiy shakllaridan biri boʻlib, u insonning maʼnaviy ehtiyojlari, eʼtiqodi va ruhan poklanishga intilishi bilan bevosita bogʻliqdir.

Hozirgi kunda turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, insoniyatning maʼnaviy ehtiyojlari, oʻzligini anglash va muqaddas qadamjolariga intilishi natijasida **diniy turizm** (ziyosat turizmi) alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) maʼlumotlariga koʻra, dunyo boʻylab sayyohlarning taxminan 20-25 foizini aynan diniy maqsadlarda sayohat qiluvchilar tashkil etadi.

Diniy ziyorat va sayohatlar qadim zamonlardan buyon mavjud boʻlib, ular dastlab faqatgina diniy amallarni bajarish bilan cheklangan boʻlsa, bugungi kunda u keng qamrovli turistik faoliyatga aylangan. Zamonaviy sharoitda diniy turizm nafaqat maʼnaviy, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ham ega boʻlib, hududlarning rivojlanishiga, infratuzilmaning yaxshilanishiga va xalqaro aloqalarning kengayishiga xizmat qilmoqda.

Statistik maʼlumotlarga koʻra, dunyo boʻyicha har yili 200 milliondan ortiq inson diniy ziyorat maqsadida safarga chiqadi. Bu esa diniy turizmning global miqyosda naqadar muhim oʻrin tutishini koʻrsatadi. Diniy turizmning rivojlanishi, avvalo, muqaddas maskanlarning mavjudligi, transport va xizmat koʻrsatish infratuzilmasi, shuningdek, davlat siyosatining qoʻllab-quvvatlashi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Oʻzbekiston Respublikasi boy tarixiy-madaniy merosi va koʻplab muqaddas ziyoratgohlari bilan diniy turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va Termiz kabi qadimiy shaharlarda joylashgan ziyoratgohlar nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham katta ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida ushbu obyektlarni qayta tiklash, obodonlashtirish va saqlash boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, diniy turizmni samarali tashkil etish va rivojlantirishda qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ziyoratgohlar bo'yicha aniq marshrutlarning yetishmasligi, infratuzilmaning ayrim hududlarda yetarli darajada rivojlanmaganligi, marketing va targ'ibot ishlarining sustligi kabi omillar ushbu sohaning to'liq salohiyatini yuzaga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi diniy turizmning nazariy asoslarini o'rganish, uning jahon miqyosidagi rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish hamda O'zbekistonda diniy turizmni tashkil etish va rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqbollari aniqlashdan iborat.

Ma'lumki, turistik resurslarning turlari ko'p bo'lib, sayohatdan maqsad asosan tanishuv, dam olish va sog'lomlashtirish, sog'liqni tiklash va sport hamda diniy ziyorat va boshqa maqsadlarni ko'zda tutadi. Turizmning qadimiy va aktiv turlaridan biri bu diniy turizm hisoblanadi. Mazkur tarmoqning geografiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jahonning turli mamlakat, mintaqalarida diniy turistik resurslar turlicha ta'minlangan. Ayni paytda esa hamma joyda ham diniy turistik obyektlar mavjud emas. Binobarin, jahon miqyosidagi, ya'ni dunyo dinlari hisoblangan xristianlik, islom va buddizm hamda mahalliy dinlarga yer shari aholisi e'tiqod qiladi. Diniy ziyorat maqsadida sayohatlar qadimdan rivojlangan, hatto hozirgi kundagi eng aktiv "turmigratsiya" hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha har yili 300-350 mln. dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida jahondagi turli ziyoratgoh, o'zlari uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy turistik sayohatlarga chiqmoqdalar. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, yiliga 150 mln. xristianlar, 45 mln. musulmonlar, 40 mln buddistlar, sintoistlar, 30 mln induistlar diniy ziyorat maqsadida sayohat uyushtirgan. Demak, dunyoda diniy turistik migratsiyasi aktiv hisoblanib, sayyohlar asosan ruhan poklanish, buyurilgan amallarni bajarish, muqaddas maskanlarni ziyorat etishadi. Bizningcha, dunyo bo'yicha ziyoratgoh maskanlarni 10 ta makromintaqaga (Yu.Aleksandrova bo'yicha 11 ta) ajratib o'rganish mumkin. Bular quyidagilar:

1. Yevropa mintaqasi (xristianlik)
2. Shimoliy Amerika mintaqasi (xristianlik)
3. Janubiy Amerika mintaqasi (xristianlik)
4. Shimoliy Afrika mintaqasi (islom)
5. Markaziy va Janubiy Afrika (mahalliy)
6. G'arbiy va Sharqiy Afrika (islom, xristian va mahalliy)
7. Sharqiy, Markaziy Osiyo mintaqasi (buddizm, sintoizm, konfusiylik)
8. Janubiy, Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi (buddizm, islom, mahalliy)
9. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi (islom, xristian, iudaizm)

10. Oʻrta Osiyo mintaqasi (islom)

Ular ichida eng muhim mintaqa Yevropada Vatikan, Gʻarbiy Osiyoda Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina va Quddus shaharlari hisoblanadi. Oʻrta Osiyoda esa Oʻzbekistonning qadimiy Buxoro va Samarqand, Toshkent, Termiz, Xiva va boshqa shaharlarida diniy turistik resurslar mavjud.

Darhaqiqat, Oʻzbekiston turistik resurslarining boyligi bilan ajralib turadi. Xususan, uning diniy turistik resurslari xalqaro ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Mustaqillik yillarida diniy qadamjolarga davlat tomonidan katta eʼtibor berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qoʻnim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, taʼmirlashga jiddiy eʼtibor berilganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1,5 mlrd. musulmon dunyosini oʻziga tortmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda diniy turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy eʼtibor qaratish lozim. Xususan, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Gʻarbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida tadbirlar ishlab chiqish kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumlashtirish, respublika va viloyat diniy turistik kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, yoʻl qurish, transport imkoniyatlarini oʻrganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Diniy ziyoratgohlar kam mablagʻ hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlarida oʻnlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Ammo ularni ziyorat qilish marshrutlari aniq tuzilmagan. Achinarli holati shundaki, islom dunyosida katta xizmat qilgan, avliyo darajasiga koʻtarilgan siymolarimiz abadiy qoʻnim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, yaʼni tuman yoki viloyat miqyosidagina bilamiz, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh obyektlariga aylantirish mumkin.

Oʻzbekiston oʻzining boy islomiy merosi, soʻfiylik maktablari va qadimiy sivilizatsiya oʻchoqlari bilan jahon diniy turizm xaritasida yetakchi oʻrinlardan birini egallash imkoniyatiga ega. Biroq, bu sohani shunchaki "ziyosat" darajasidan professional "industriya" darajasiga koʻtarish uchun qator konseptual va amaliy masalalarni hal etish talab etiladi.

Oʻzbekiston — Markaziy Osiyoda islom madaniyati va ilm-fanining chorrahasi hisoblanadi. Mamlakat hududida 7000 dan ortiq madaniy meros obʼektlari mavjud boʻlib, ularning salmoqli qismi diniy-tarixiy ahamiyatga ega. Bugungi kunda Oʻzbekiston hukumati turizmni strategik tarmoq sifatida belgilab, ayniqsa **"Ziyosat turizmi"** yoʻnalishida jahonning yetakchi mamlakatlari (Saudiya Arabistoni, Turkiya, Indoneziya) bilan raqobat qila oladigan muhit

yaratishni maqsad qilgan. Surxondaryo zaminida islom olamida "Hakim Termiziy" va "Imom Termiziy" kabi buyuk mutafakkirlarning mangu qo'nim topgani viloyatning asosiy "magnit" kuchi hisoblanadi.

Al-Hakim at-Termiziy majmuasi: Bu ob'ekt nafaqat ziyoratgoh, balki qadimiy Termiz shahrining tarixiy-arxeologik markazi hamdir. Bu yerda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun "muzey-ziyoratgoh" konsepsiyasini kuchaytirish lozim. Sulton Saodat majmuasi: Sayyidlar sulolasining (Payg'ambarimiz s.a.v. avlodlari) xilxonasi hisoblangan ushbu maskan musulmon dunyosi uchun ma'naviy qiymati nihoyatda yuqori ob'ektdir. Imom at-Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi: Diniy turizmni ilmiy turizm bilan bog'lashning eng yaxshi namunasi. Bu yerga kelgan sayyohlar faqat ziyorat bilan cheklanmay, Termiziy merosi bo'yicha ilmiy ma'ruzalar eshitish imkoniga ega bo'lishi kerak. Diniy turizmning nazariy-huquqiy asoslari.

Ilmiy adabiyotlarda diniy turizm tushunchasi ikki xil yondashuv bilan talqin qilinadi: Ziyorat turizmi: Sayyohning ma'lum bir dinga e'tiqod qilishi va o'z dinining muqaddas qadamjolarini tavof qilish maqsadida safar qilishi.

1. Diniy mazmundagi ekskursiya turizmi: Sayyohning dinga e'tiqodidan qat'i nazar, diniy arxitektura, san'at va tarix bilan tanishish maqsadidagi sayohati.

Buddaviylik merosi: ekotizimning diversifikatsiyasi. O'zbekistonning boshqa hududlaridan farqli o'laroq, Surxondaryo Janubi-sharqiy Osiyo (Yaponiya, Koreya, Xitoy) sayyohlari uchun Buddha madaniyati orqali diniy turizm eshiklarini ochadi.

Fayoztepa va Qoratepa ibodatxonalarini: Bu obyektlar jahon ahamiyatiga ega. Ilmiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, bu yerda "Ziyorat + Arxeologiya" formatini yo'lga qo'yish lozim.

Zurmala minorasi: Markaziy Osiyodagi eng qadimgi budda inshootlaridan biri sifatida, yapon va koreys sayyohlarining diniy-madaniy qiziqishlarini qondirish uchun strategik ob'ektdir.

Hududiy salohiyat va klasterlar tahlili. O'zbekistonda diniy turizmni tashkil etishda hududiy ixtisoslashuv tamoyili muhim:

Samarqand klasteri: Imom Buxoriy majmuasi — islom dunyosining eng muqaddas qadamjolaridan biri sifatida "Muhaddislar markazi" konsepsiyasini shakllantiradi. Buxoro klasteri: "Yetti pir" majmualari orqali so'fiylik turizmini (Sufi Tourism) rivojlantirish. Bu yo'nalish ayniqsa Turkiya, Pokiston va Hindistonlik sayyohlar uchun yuqori jozibadorlikka ega.

Termiz klasteri: Imom Termiziy va boshqa buyuk ulamolar merosi, shuningdek, hududdagi qadimiy budda yodgorliklari diniy turizmning diversifikatsiyalashgan (ko'p dinli) tabiatini ko'rsatadi.

Strategik takliflar: "termiz — dinlararo muloqot chorrahasi"

1. Kross-madaniy marketing: Yaponiya va Janubi-sharqiy Osiyo bozorlari uchun Fayoztepani, Yaqin Sharq bozorlari uchun esa Hakim Termiziyini asosiy brend sifatida taqdim etish.
2. Ziyorat va Salomatlik integratsiyasi: Sherobod tumanidagi "Omonxona" shifobaxsh suvi va ziyoratgohini birlashtirgan holda "Medical-Religious Tourism" (tibbiy-diniy turizm) yoʻnalishini rivojlantirish.
3. Hunarmanchilik va Agro-turizm: Sayyohlarga ziyoratdan soʻng Surxon milliy matolari (baysun kashtachiligi) va mahalliy mevalar (Termiz anori) orqali qoʻshimcha xizmatlar koʻrsatish.

Diniy turizmga gidlarning oʻrni beqiyos. Oddiy turistik gidlardan farqli oʻlaroq, ziyorat gidi:

1. Teologik (diniy) bilimlarga ega boʻlishi;
2. Tarixiy manbalarni diniy aqidalar bilan chalkashtirmasligi;
3. Sayyohlarning diniy sezgirligini (religious sensitivity) his qilishi lozim.

Hozirgi kunda koʻp hollarda obʼektlardagi tushuntirish ishlari ilmiy asosga emas, balki afsonalarga tayanib qolayotgani sohaning professionalizm darajasini pasaytirmoqda. Shu sababli, oliy taʼlim muassasalarida "Ziyorat turizmi gidi" ixtisosligini chuqurlashtirish dolzarb masaladir.

Diniy turizmni tizimli tashkil etishda quyidagi masalalar ilmiy-amaliy yechimini kutmoqda:

A. "Halal" Servis tizimini integratsiya qilish.

Xalqaro musulman sayyohlari uchun oziq-ovqatdan tashqari, servisning barcha bosqichlarida (aviakompaniya, mehmonxona, transport) "Muslim-friendly" (musulmonlar uchun qulay) standartlarini joriy etish. Bu mehmonxonalarda qibla koʻrsatkichlari, tahorat uchun sharoitlar va spirtli ichimliklar boʻlmagan muhitni koʻzda tutadi.

B. Logistika va "Oxirgi milya" konsepsiyasi.

Koʻpgina muqaddas ziyoratgohlar (masalan, Qashqadaryodagi Abu Ubayda ibn al-Jarroh yoki Surxondaryodagi ulamolar qabri) chekka hududlarda joylashgan. Ularga yetib borish uchun sifatli yoʻl infratuzilmasi va multimodal transport tizimini (poyezd-avtobus-taksi uygʻunligi) yoʻlga qoʻyish zarur.

Surxondaryo viloyati Oʻzbekistonning ziyorat turizmi xaritasida "Janubiy darvoza" vazifasini oʻtaydi. Islom ulamolari merosi va Buddaviylik yodgorliklarining bir hududda joylashganligi viloyatga bagʻrikenglik (tolerantlik) brendini beradi. Agar viloyatda xizmat koʻrsatish sifati xalqaro "Halal" va "Buddhist-friendly" standartlariga koʻtarilsa, Surxondaryo nafaqat mavsumiy, balki butun yil davomida ishlaydigan turistik markazga aylanadi

Diniy turizm – bu shunchaki iqtisodiy foyda manbai emas, balki mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlovchi, madaniyatlararo muloqotni ta'minlovchi vositadir. Uni rivojlantirish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish bilan birga, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning intellektual salohiyatini oshirish, zamonaviy marketing texnologiyalaridan unumli foydalanish va ziyoratchilarning e'tiqodiy ehtiyojlarini to'liq qondira oladigan muhit yaratish lozim.

O'zbekiston bu borada nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosdagi "Hab" (markaz) bo'lish uchun barcha tabiiy, tarixiy va ma'naviy resurslarga ega. Faqatgina ushbu resurslarni ilmiy asoslangan boshqaruv (management) tizimi bilan birlashtirish qolmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishda diniy turizmning hissasi kelgusi 5 yilda 2-3 baravar ortishi mumkin. Buning uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

Ziyoratgohlar atrofida kichik turistik zonalar tashkil etish;

"Ziyorat vizasi" tizimini yanada soddalashtirish va uzoq muddatli ziyoratchilar uchun imtiyozlar berish; Mahalliy aholini turizm tadbirkorligiga tayyorlash (oilaviy mehmon uylari tizimi orqali). O'zbekistonning boy ma'naviy merosi to'g'ri boshqaruv (management) orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki milliy g'urur va xalqaro nufuzning asosiy manbaiga aylanishi shubhasizdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, diniy turizm hamma vaqt sayohatning eng aktiv turi bo'lib kelgan. Insoniyat borki, u e'tiqod qiladi, sig'inadi, ruhan va ma'naviy jihatdan poklanishga harakat qiladi. Shuning uchun u diniy ziyoratni xohlaydi. Buning uchun muqaddas ziyoratgoh bo'lishi shart. Vaholanki, mamlakatimiz diniy ziyoratgohlarga boy mintaqa hisoblanadi. Diniy turizm insoniyat tarixida muhim o'rin egallagan va bugungi kunda ham eng faol turizm turlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston esa boy diniy-madaniy merosi va ziyoratgoh maskanlari bilan ushbu yo'nalishda katta salohiyatga ega. Shu bois, diniy turizmni rivojlantirish uchun ziyoratgohlarni tizimli o'rganish, ularni xaritalashtirish, infratuzilmani yaxshilash hamda xalqaro miqyosda targ'ib qilish zarur. Bu esa nafaqat iqtisodiy daromadni oshiradi, balki mamlakatning xalqaro imijini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
3. Ashurov J. S., Mamashev D. O., Umarov Sh Y. SURXONDARYO VILOYATINING ORGANIK DUNYOSI VA YER (AGROIQLIM) RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH MASALALARI //Экономика и социум. – 2025. – №. 11-2 (138). – С. 43-49.

4. Saidkulovich AJ TABIAT IN'OM ETGAN G 'AROYIB OROLLAR VA ULARDAGI NOYOB TABIAT MO 'JIZALARI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 4. – No 45. – 125-129-betlar.